



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

**QISHLOQ HUDUDLARIDAGI MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA
SANITARIYA-GIGIENA SHAROITLARI VA ULARNING BOLALAR
SALOMATLIGIGA TA’SIRI
Otanazarova M.A.**

Urganch davlat tibbiyot instituti

Dolzarbliqi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida «sanitariya va gigiyena» tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Bu kontekstda u ichimlik suv va qo‘l yuvish vositalarining mavjudligi, shuningdek, gigienik talablarga javob beradigan ishlaydigan hojatxonani o‘z ichiga oladi. Maktab hojatxonalarini toza suv, elementar sanitariya-gigiyena sharoitlari bilan ta’minlash bolalarga sog‘lom hayot boshlash va rivojlanish imkonini beradi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida sanitariya va gigiyena sharoitlarini yaxshi bo‘lishi bolalarning sog‘lom o‘tib-ulg‘ayishida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, qishloq hududlarida joylashgan bog‘chalarda sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilinishi bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bola organizmi hali rivojlanishda davom etishi va ularda immun tizimining hali to‘liq shakllanmaganligi tufayli gigienik talablarning buzilishi turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Aholining-epidemiologik o‘soyishtaligi va Jamoat salomatligi qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, keyingi yilda mamlakatda virusli gepatit A bilan kasallanish 2022 yilga nisbatan ikki baravarga oshgan, ayni paytda kasallanganlik holatlarining ko‘pgina qismi maktabgacha yoshdagi bolalarda aniqlangan. **Bu kasallik sifatsiz suv ta’minoti, sanitariya va gigiyena qoidalariga amal qilmaslik bilan chambarchas bog‘liqdir.** Qishloq joylarda ko‘plab muassasalarda ichimlik suvi markazlashmagan, gigienik talabga javob bermaydigan quduqlardan olinadi. Bu esa bolalarda ichak kasalliklari, parazitlar kasalliklarning ko‘payishiga olib kelmoqda.

Sanitariya-gigiyena sharoitlari birinchi navbatda toza ichimlik suvi, xonalar va o‘yin maydonlarining sanitariya holati, shuningdek, ovqatlanish gigienasi, bolalarning shaxsiy gigienasiga rioya qilinishini ham o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida sog‘lom taomnoma shakllantirilishida kunlik ratsionda bolalarning asosiy oziq-ovqat moddalarga bo‘lgan ehtiyoji va yoshiga mos energiya quvvati bilan to‘liq ta’minlanishi, ularning tarbiyalanish sharoiti va sog‘lig‘i, shuningdek, ovqatlanishning iqlimdan kelib chiqib va milliy xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Qishloq joylarda ko‘plab maktabgacha ta’lim muassasalarida esa muvozanatli va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari yetarli darajada bo‘lmasligi kuzatilgani qayd etiladi. To‘g‘ri ovqatlanmaslik, ratsionda vitamin va mineral moddalarning yetishmovchiligi bolalarning immun tizimi zaiflashuviga, kamqonlik va raxit kabi kasalliklarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. SHu bilan birga, ovqat tayyorlash va saqlash jarayonlarida sanitariya qoidalariga amal qilinmasa, turli yuqumli kasalliklar tarqalish xavfi ortadi.

Xonalar va o‘yin maydonchalari tozaligiga rioya qilinishi ham katta ahamiyatga ega. CHang, namlik, shamollatishning yetarli emasligi, yaroqsiz o‘yin maydonchalari bolalar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. SHuningdek, bolalarning shaxsiy gigiyena ko‘nikmalarini shakllantirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Qo‘l yuvish, toza kiyinish, gigienik odatlarni o‘rgatish orqali ko‘plab kasalliklarning oldini olish mumkin.

Xulosa: Qishloq hududlaridagi maktabgacha ta’lim muassasalarida sanitariya-gigiyena talablarini to‘liq amalga oshirish, ichimlik suvi va oziq-ovqat sifatini yaxshilash, xonalar va maydonchalarda gigiyena talablariga qat’iy rioya qilish orqali bolalar salomatligini mustahkamlash va kasallanishini oldini olish mumkin. SHu bilan birga, ota-onalar va tarbiyachilarni orasida gigienik bilimlarni targ‘ibot qiluvchi suhbatlar o‘tkazib turish ham bugunnnng dolzarb masalalaridan hisoblanadi.